



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MANTIQUIY MASALALAR YECHISHNI O'RGATISH USULLARI

p.f.n. Eshmurodova G.X.
Qarshi Xalqaro universiteti

Shodiyeva Muxlisa
Qarshi halqaro universiteti
Boshlang'ich ta'lim I- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy masalalar yechishda bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: matematika, masala, amaliy, qobiliyat, fikrlash, ko'nikma.

Bola maktabdagi mashg'ulotlarning birinchi kunidayoq masala bilan uchrashadi. O'quvchilarning qanday hayotiy tajriba va bilimga ega ekanini aniqlash maqsadida o'qituvchi o'quvchiga eng sodda masala orqali murojaat qiladi. Masalan: "Sening to'rtta qalaming bor edi, sen yana bitta qalam olding. Sendagi qalamlar nechta bo'ldi?"

Matematik masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, uni o'rab turgan muhitni chuqurroq anglashga, shu bilan birga masalalar echishga bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi.

Eng asosiylaridan yana biri masalalar yechish orqali o'quvchi to'rtala arifmetik amal va ularning xossalarini puxta o'rganadi. Matematika tili rivojlanadi. qisqasi ,masalaga bu nazariya bilan amaliyotni bog'lovchi muhim zvenodir.

Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog'lanishlarni amal komponentlari bilan orasidagi ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog'lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo'ladigan bilimlar malakalarini va ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib odatda o'z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala yechuvchidan analiz va sintezga murojaat qilish faktlarni taqqoslash,



umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarni o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi. Bolalar masala tuzilishi bilan ikkinchi yoki uchinchi mashg'ulotda tanishadilar. Ular masalada shart va savol borligini bilib olishadi, masala shartida kamida ikkita son bo'lishligi alohida ta'kidlanadi. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o'quvchilarni har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil o'qib chiqishlari ham kerak.

Agar masala sharti bosh qotiradigan bo'lsa o'quvchilarga masala mazmunini mustaqil o'ylab ko'rishlari uchun bir-uch minut vaqt berish maqsadiga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar xossalari va usullarini o'rganishda o'ziga xos bo'lgan qonunyalarni ko'paytirish amaliga teskari amal sifatida muvofiqlikda o'rganilishini talab etsa, ikkinchi tomondan maxsus hollarni tahlil etishda amallardagi xos xususiyatlar bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarni ikrlashlarini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar yechishda o'quvchilarda hisoblash malakalarini o'stirish orqali matnli masalalar yechishdagi qo'llaniladigan pedagogic texnologiyalardan foydalanish maqsadida masalalar to'plamlari, multimedia va grafik vositalarni tayyorlash yo'lga qoi'yilsa boshlang'ich matematik ta'lim samaradorligini oshirishda ijobiy natijalar beradi deb hisoblaymiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jumayev M.E. « Matematika o'qitish metodikasidan praktikum ». – T . 2003-yil.
2. Boshlang'ich ta'limni o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. II-qism. - T-2018-M.Axmedov va b.q. 1-sinf "Matematika" darsligi T-2020- yil
3. Bikbayeva N., Yangabayeva E., Girfanova K.To'rtinchi sinf matematika darsligi.Toshkent. "Oqituvchi ". 2017 yil.
4. Jumayev M.E. Bolalarda boshlang'ich matematika tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent."Ilm-Ziyo " 2013 yil.
5. Jumayev M.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Turon-Iqbol". 2012 yil.